

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI**

5310100 – “Energetika (Issiqlik energetikasi)”

bakalavr ta'lim yo'nalishi

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: K-800-240-5 turbinasi bosim pog'onasini hisoblash
algoritmini ishlab chiqish**

Rahbar:

(imzo)

Xujaqulov S.M.

Ishni bajaruvchi:

(imzo)

Amirqulov O.A.

"Himoyaga ruxsat etildi"

Kafedra mudiri:

(imzo) T. A. Fayziyev

"Himoya uchun DAKga yuborildi"

Fakultet dekani:

(imzo) H.A. Ravshanov

" _____ " _____ 2018 yil

" _____ " _____ 2018 yil

QARSHI – 2018 yil

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

Energetika fakulteti

5310100 – "Issiqlik energetikasi" ta'lim yo'nalishi

"TASDIQLAYMAN"

Kafedra mudiri

_____ T.A. Fayziyev

" ____ " _____ 2017 yil

Bitiruv malakaviy ishi bo'yicha

T O P S H I R I Q

- Talaba _____ ga
1. Malakaviy ish mavzusi _____

_____ institut rektorining № _____ buyrug'i bilan _____ da tasdiqlangan.
 2. Malakaviy ishni topshirish muddati _____
 3. Malakaviy ish uchun ma'lumotlar _____

 4. Hisobiy izoh qismining mazmuni (ishlab chiqilishi lozim bo'lgan savollar ro'yxati) _____

 5. Chizmalar ro'yxati (bajarilishi shart bo'lgan chizma va grafiklar) _____

M U N D A R I J A:

Kirish.....	5
1 – bob. K-800-240-5 bug’ turbinali qurilmasini	
tadqiqot qilish.....	8
1.1. K-800-240-5 bug’ turbinali qurilmaning asosiy tavsifnomalari.....	8
1.2. K – 800 – 240 – 5 bug’ turbinali qurilmasining prinsipial issiqlik sxemasi.....	15
2 – bob. K-800-240-5 turbinasi bosim pog’onasini hisoblash	
algoritmini ishlab chiqish.....	21
2.1. Bug’ turbinasining pog’onalarini hisoblash dasturlari tahlili.....	21
2.2. K-800-240-5 bug’ turbinasining bosim pog’onasini hisoblash algoritmi.....	33
A t r o f – m u h i t m u h o f a z a s i.....	56
Mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi	59
X u l o s a.....	62
Foydalanilgan adabiyotlar.....	63

KIRISH

Mamlakatimiz energetikasining rivojlanishi har tomonlama stansiyaning ichki qurilmalarning to'g'ri ekspluatatsiyasiga bog'liqdir. Sanoatda ishlab – chiqarishning rivojlanishi mana shu faktorga bevosita bog'liqligi mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy o'sishiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Ishlab chiqarish jarayonlarini rivojlantirish asosan ikkita obyektiv sababga bog'liqdir. Bulardan birinchisi yangi turdagi ichki va tashqi zamonaviy texnologiyalar hisobiga mamlakat sanoatini rivojlantirish, ya'ni samaradorligi yuqori bo'lgan chet el texnologiyalarini keltirish, o'rnatish va ishlab chiqarishga tadbiq etishdan iborat. Bunda ilg'or texnologiya ishlab chiqarish tarmog'iga kirishi, yangi o'rnatilgan ish o'rinlari uchun malakali mutaxassis kadrlar talabining ortishiga kuzatiladi.

Rivojlanishning ikkinchi yo'li mavjud texnika va texnologiyalarni oqilona ratsionalizatorlik takliflari bilan boyitib, ekspluatatsiya qilinayotgan qurilmalarni uzluksiz takomillashtirib borishdan iboratdir.

Biroq shuni yodda tutish lozim-ki, yuqorida keltirilgan ikkala uslub bir-biri bilan bevosita va har tomonlama uzviy bog'langandir. Chunki ishlab chiqarishda joriy qilinayotgan har qanday yangi texnologiyani ishlatish jarayonida uning ishlatuvchi tomonidan qayd etib boriladigan ijobiy va salbiy xususiyatlari hech bo'lmaganda, bir dona vintning yoki gaykaning o'rnini, o'lchamini, shaklini va h.k. xususiyatlarini almashtirish taklifini bildirishiga olib keladi. Bu esa ishlab chiqarishda ratsionalizatorlik taklifi tushunchasi bilan deyarli mos keladi [1].

Mening bitiruv malakaviy ishimda, asosiy e'tibor, amalda ekspluatatsiya qilinayotgan K-800-240 LMZ rusumli energetik blok turbinasining pog'onalaridagi foydali ish ko'effitsiyentini tadqiqot qilishga va EXCEL dasturi yordamida dastlabki pog'onada bug' kengayish jarayoni algoritmini ishlab chiqishga qaratdim.

Ishlab chiqarish jarayonida issiqlik iste'molchisini uzluksiz bug' va issiq suv bilan ta'minlash uchun bug' generatorini takomillashgan texnologiyalar bilan

jihozlash va ular ish jarayonini uzluksiz kuzatuvini tashkil etish muhim va e'tiborga molik masaladir.

Bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarishning ko'plab yangi va zamonaviy turlari ommalashib borayotganligi sir emas. Bu usullarga quyosh elektr stansiyalari, shamol energetikasi, GESlar, mini-GESlar, GTES va GAESlarni misol qilib keltirish mumkin. Biroq, jahon energetikasining rivojlanish bosqichlarini va bugungi kundagi holatini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, butun dunyoda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasining 80 % dan ortig'ini issiqlik elektr stansiyalaridagi bug' turbinali, gaz turbinali va bug'-gaz qurilmali energetik bloklar yordamida ishlab chiqarilmoqda (Allayev Q.R.).

Issiqlik elektr stansiyalari katta quvvat manbai bo'lish bilan birga, o'zining murakkab sxemadagi komponovkasi, alohida rivojlantiriluvchi va yagona ishlab chiqarish tizimiga xizmat ko'rsatuvchi, yoqilg'i xo'jaligi, reagent xo'jaligi, suv tozalash inshootlari kimyoviy ishlov berish xo'jaligi kabi tuzilmasi bilan boshqa turdagi stansiyalardan farq qiladi. Bundan tashqari mahalliy suv va yoqilg'i resurslarining kimyoviy tarkibi nuqtai-nazaridan xilma-xilligi energetik bloklarning metall qizdirish yuzalarining turli cho'kindilar, kuyindi, qurum bilan tez-tez qoplanib qolishiga, natijada ishlab chiqarish tizimidagi kutilmagan uzilishlarni yuzaga kelishiga olib keladi. Zamonaviy energetik qurilmalar va suv tozalash inshootlarining ishlab chiqarishga tadbqiq etilishi bilan bu kamchiliklar qisman bartaraf etilayotgan bo'lsada, biroq turbinasozlik sanoatidagi muammolar hali to'liq o'z yechimini topgan deb aytib bo'lmaydi.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi: Issiqlik elektr stansiyalari, jumladan K-800-240-5 turbinali Talimarjon IESida ham turbinalarning ish jarayoni, boshqaruvi va foydali ish koeffitsiyentini hisoblash amallari uzoq yillardan buyon qo'lda yoki boshqarilishi qiyin bo'lgan dasturlar yordamida bajarilib kelinadi; Bu jarayonni sodda va boshqarilishi oson bo'lgan dasturlar yordamida amalga oshirish har tomonlama ishlab chiqarish va uning xodimlari uchun qulayliklar yaratadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: Turbina va uning ichki pogʻonalarida sodir boʻladigan issiqlik jarayonlarini hisoblash, samaradorlik koʻrsatkichlarini kerakli parametrlar yordamida tez va aniq yoritib berish uchun sodda tilda bayon qilinadigan algoritmi ishlab chiqish;

Bitiruv malakaviy ishining vazifalar: Buning uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilishi kerak deb hisoblaymiz:

K-800-240-5 bugʻ turbinasining dastlabki pogʻonasida sodir boʻladigan issiqlik jarayonlaridagi qaralayotgan pogʻonaning foydali ish koʻeffitsiyentini optimal koʻrsatkichini aniqlash;

- qurilma jihozlari va ularning komponentlarini oʻrnatilishini oʻrganish va tahlil qilish;

- oʻrnatilgan ish rejimlarini oʻzgarishini, ish jarayonida namlik tufayli sodir boʻlishi mumkin boʻlgan ishlab chiqarish holatlarini tadqiqot qilish;

- pogʻona panjaralarining geometrik va aerodinamik tavsifnomalarini oʻrganib chiqish zaruriy hollarda oʻzgartirish takliflarini ishlab chiqish;

- turbina panjaralari orqali nam bugʻ oqimini tadqiqot qilish va jarayondagi energiya isroflarini hisoblash va h.k.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: K-800-240-5 bugʻ turbinasining dastlabki pogʻonasida sodir boʻladigan issiqlik jarayonlaridagi qaralayotgan pogʻonaning foydali ish koʻeffitsiyentini optimal koʻrsatkichini aniqlash amaliy ahamiyatga ega boʻladi

Tadqiqot obyekti: K-800-240-5 bugʻ turbinasining dastlabki pogʻonasi va uning issiqlik texnikaviy jihozlari, hamda konstruktiv – texnik xarakteristikalar.

1 – BOB. K-800-240-5 BUG' TURBINALI QURILMASINI TADQIQOT QILISH

1.1. K-800-240-5 BUG' TURBINALI QURILMANING ASOSIY TAVSIFNOMALARI

K-800-240-5 bug' turbinali qurilmani tadqiqot qilish qurilma elementlarini tahlili orqali olib boriladi.

Respublikai energiya ta'minotini ishonchliligini oshirish va istiqbolda elektr energiyasi iste'molini to'la qondirish uchun 1978 yilda Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida Markaziy Osiyoda yirik quvvatga ega bo'lgan energoblokli Talimarjon IESini qurish loyihasi tasdiqlangan. Dastlabki loyihada stansiyaning o'rnatilgan quvvati 3200 MVt bo'lib, unda K – 800 – 240 – 5 rusumli 4 ta bug' turbinali blok o'rnatilishi rejalashtirilgan. Talimarjon IESda bug' turbinasini 2650 tonna/soat bug' bilan ta'minlash uchun Taganrog qozonsozlik zavodida tayyorlangan 4 ta to'g'ri oqimli gazda ishlaydigan P - simon, osma shaklda o'rnatilgan Pp – 2650-255-545/542 G (TGP – 805/sz) markali bug' qozonlari tanlangan. Stansiyaning o'rnatilgan quvvati bo'yicha yillik ishlash soati 6500 soatga teng.

Texnik loyihada bosh korpus kompanovkasi yopiq, turbinalarning joylashtirilishi bo'ylama yo'nalishda belgilangan. Bosh reja bo'yicha tutun mo'risining orqa tomonidan ochiq taqsimlash qurilmasi ORU-220 va ORU-500 kVt joylashtirilgan. Stansiyaning texnik suv ta'minotida asosiy manba bo'lib Qarshi magistral kanali hisoblanadi. Texnik suv ta'minoti aralash tipda bo'lib, sug'orish mavsumi davrida aylanma texnik suv ta'minoti ishlaydi, ya'ni purkovchi basseynida kondensatorda qizigan suv sovutiladi va kondensatorga bug'ni kondensatsiyalash uchun yuboriladi.

Talimarjon IES qurilishida 1980 yildan 1992 yilgacha tayyorgarlik ishlari amalga oshirildi. Bosh korpus, suv tayyorlash binolari, ishga tushiruvchi isitish qozonxonasi qurilishi boshlandi.

Lekin sobiq ittifoq davrida moliyaviy yetishmovchilik natijasida stansiyaning qurilishi to'xtab qoldi. Mustaqilligimizni dastlabki yillaridanoq Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan bu inshootga katta e'tibor berildi. Mamlakatimiz rahbarining sa'y harakatlari bilan Talimarjon IESi 2004 yil noyabr oyida ishga tushirildi.

Talimarjon IESi Nishon tumani markazidan 18 km janubda, Qarshi magistral kanalining ung qirg'og'ida joylashgan. Seysmik sharoiti 3 marta takrorlanadigan kategoriyadagi 7 balli rayonga kiradi. Iqlim sharoiti – keskin kontinental, o'rtacha yillik harorati 15,8 °S, havoning absolyut maksimum harorati +49 °S va minimum o'rtacha harorat – 8 °S teng.

Yanvar oyida nisbiy namligi 55 %, o'rtacha oylik shamol tezligi 4-6 m/sek. Talimarjon IESda asosiy yoqilg'i sifatida Shurtan konida olinadigan tabiiy gaz ishlatiladi. Gaz oltingugurtli bo'lib, oltingugurt vodorodning hajmi bo'yicha miqdori 0.08 % ga teng. Gaz tozalanmasdan yoqiladi va gazni uzatish masofasi 30 kmga teng. Quyidagi jadvalda asosiy yoqilg'i parametrlari keltirilgan.

Gazning hajm bo'yicha tafsifnomalari

Metan	$\text{CH}_4 - 90,6\%$
Etan	$\text{C}_2\text{H}_6 - 3,45\%$
Propan	$\text{C}_3\text{H}_8 - 0,9\%$
Butan	$\text{C}_4\text{H}_{10} - 0,38\%$
Azot	$\text{N}_2 - 1,6\%$
Oltingugurt	
kislotasi qoldig'i	$\text{H}_2\text{S} - 0,08\%$
Karbonat qoldig'i	$\text{CO}_2 - 2,69\%$
Uglevodorodlar	$\text{C}_n\text{H}_m - 0,3\%$
Yoqilg'ining yonish issiqligi	$Q_{\text{H}}^{\text{K}} - 8626,7 \text{ kkal/m}^3$
Solishtirma og'irligi	$- 0,8 \text{ kg/nm}^3$

Talimarjon issiqlik elektr stansiyasida bir navli besh silindrli K-800-240-5 rusumli turbinasi o'rnatilgan.

Turbina generatori TVV – 800 – 2 EUZ rusumli bo‘lib, rotorning aylanishlar soni $n=3000$ ayl/min.ga teng va suvli sovitish tizimiga ega.

Turbina 6 ta rostlanmaydigan bug‘ olinmasiga (otbor) ega. Ulardan blok sxemasida kondensat va ta‘minot suvi regenerativ qizdirishda teplofikatsiya uchun va blokni o‘z ehtiyojini qondirish maqsadlarida foydalaniladi.

Turbinaning regeneratsiyalash qurilmasi ikkita aralash va uchta yuzli bir yo‘lli past bosimli qizdirgichlar guruhidan tarkib topgan.

800 – KSS – 5 kondensatsion qurilmasi ikkita ketma – ket ulangan kondensatordan iborat bo‘lib ularning umumiy sovitish yuzasi 41200 m^2 ga teng.

Bug‘ – havo aralashmalarini so‘rib olish uchun uchta EV–7–1000 rusumli suv oqimli ejektordan o‘rnatilishi ko‘zda tutilgan bo‘lib bittasi zaxirada hisoblanadi.

Ishga tushirish paytida kondensatorning suvli kamerasidan havoni chiqarib tashlash uchun alohida EV–1–1–230 turdagi suv oqimli ejektordan ikkita o‘rnatilgan.

Turbinaning so‘nggi zichlamalari bug‘ sovitgich PS – 200 – 1 dan bug‘-havo aralashmasini ajratish uchun alohida EV–1–230 rusumli ejektordan foydalaniladi.

Turbinaning asosiy texnik ko‘rsatkichlari:

1. Nominal quvvati – 800000 kVt;
2. Aylanishlar soni – 3000 ayl/min;
3. Bug‘ sarfi (max) – 2650 t/soat;
4. Avtomatik saqlash klapani oldidagi bug‘ bosimi – 240 kgs/sm^2 ;
5. Avtomatik saqlash klapani oldidagi bug‘ harorati – 540°C ;
6. Oraliq qizdirgich uchun bug‘ sarfi – 2180 t/soat;
7. Oraliq qizdirgichga yuborilgan bug‘ bosimi – $38,5 \text{ kgs/sm}^2$;
8. Oraliq qizdirgichdan keyin bug‘ harorati – 540°C ;
9. Kondensatordagi hisobiy bosim – $0,035 \text{ kgs/sm}^2$;
10. Yoqilg‘ining solishtirma sarfi – 320 gramm/kVt(soat);

Qozon qurilmasi. Talimarjon IES da to‘g‘ri oqimli, bir korpusli, P – simon Pp–2650–255–545/542G (TGP – 805 s/z) rusumli qozon agregati o‘rnatilgan.

Qozon bo'yicha quyidagi asosiy texnik yechimlar qabul qilinadi:

- tashqi yonlama zadviykali ikki yo'lli trakt;
- o'tkir bug' haroratini ta'minot suvini purkash yo'li bilan rostlash;
- oraliq qizdirgichdagi tutun gazlarini retsirkulyatsiyasida haroratni ta'minot suvini purkab rostlash;
- o'tkir bug'ni ikki yo'lli chiqishi;
- oraliq qizdirgichga ikki yo'lli kirish va to'rt yo'lli chiqish;
- qozonda ikkita purkovchi ventilyator va ikkita retsirkulyator tutun surgichi o'rnatish;
- qozonni gorelka qurilmasi uch yarusli (qavatda) joylashgan 36 ta gorelkalardan tarkib topgan. Yaruslar o'choqning old va orqa tomoniga balandlik bo'yicha o'rnatilgan.

Qozon gaz – zichlami bo'lib, osma stahli tayanchli, karkas elementlari yorga o'rnatilgan, balki barcha elementlar binoning metall konstruksiyasiga osma tarzda joylashtirilgan.

Qozonning konstruksiyasida "harakatdagi karkas" sxemasi qo'llanilgan, ular bino shiftidagi "qaynoq" ilgaklariga osilgan bo'lib, ularning barchasi qozonning harorati tufayli kuchishlarida birgalikda harakatga keladi.

Tutun gazlarning retsirkulyatsiyasi qozonning barcha asosiy gorelkalariga hamda qozonning ikki tomoniga sakkiztadan o'rnatilgan 18,05 m belgidagi chiqarish gorelkalarida amalga oshiriladi.

Sistema ta'sirlashuvidan qozonni saqlash uchun qozon bino karkasiga maxsus tirgaklar bilan qotirilgan. Bu tirgaklar qozonni maxkamlovchi bog'lamini bino tayanch kolonnalari bilan birlashtiradi.

Bug' qozonining xarakteristikalar

1. Bug' ishlab chiqarish unumdorligi – $D = 2650 \text{ t/s}$;
2. O'ta qizigan bug' bosimi – $p = 255 \text{ kgs/sm}^2$;
3. O'ta qizigan bug' harorati – $t = 545 \text{ }^{\circ}\text{C}$;
4. Ikkilamchi (oraliq qizdirgichdagi) bug'ning sarfi – $D = 2280 \text{ t/s}$;

5. Ikkilamchi (oraliq qizdirgichdagi) bug'ning bosimi kirish/chiqish – $p = 38,0/35,5 \text{ kgs/sm}^2$;
6. Ikkilamchi (oraliq qizdirgichdagi) bug'ning harorati kirish/chiqish – $t = 291/542 \text{ }^\circ\text{C}$;
7. Ta'minot suvining harorati – $t_{\text{t.c}} = 275 \text{ }^\circ\text{C}$;
8. Qozonning foydalish ish koeffitsiyenti – $\eta = 94,65\%$;
9. Tutun gazlarining chiqish harorati – $t_{\text{tyt.f}} = 126 \text{ }^\circ\text{C}$;
10. "Issiqlik" havo harorati – $t_{\text{h.x}} = 313 \text{ }^\circ\text{C}$;

Yordamchi jihozlar.

1. Tutun so'rgichlar. DS – A, B lar DOD 43 – 500 GM tipdagi tutun so'rgichlar TGP – 805 qozonining o'chog'ida tutunlarni so'rishga mo'ljallangan.

O'qli tutun so'rgich, 2 pog'onali ishchi lopatkalari va korpusi silindrik shaklda.

Texnik xarakteristikasi:

Unumdorligi	– 1810/2015 ming.m ³ /s
100 °C da to'liq bosim	– 6170/7795 kgs/sm ²
Iste'mol qilinadigan quvvati	– 3759/5470 kVt
F.I.K	– 82,5%
R.E. chiqish gazi harorati	– 200 °C
Ishchi koleso diametri	– 4300 mm
Aylanishlar soni	– 495 ayl/min
Aylanishlar tomoni	– o'ng
Soni	– 2 ta
Ishlab chiqaruvchi	– OAS "Siberenergomash"
Elektrodrigatel turi	– AO2 – 20 – 83 – 12VI
Quvvati	– 500 ayl/min
Kuchlanish	– 6000 V

2. Purkovchi ventilyatorlar. Qozonga havo uzatishning issiqlik hisoblariga ko'ra ishlab chiqarish unumdorligini $1569 \cdot 10 \text{ m}^3/\text{soat}$ bo'lgan VDN – 36 – 2E rusumli ikkita purkovchi ventilyator o'rnatilishi ko'zda tutilgan.

3. Retsirkulyator tutun so'rgichlari. Qozonning issiqlik hisobi va ish rejimlaridan kelib chiqib har birining ishlab chiqarish unumdorligi $735,3 \cdot 10^3$ m³/soat bo'lgan ГД-26×2 rusumli retsirkulyator tutun so'rgichlar olinadi.

4. Havo qizdirgichi. Havoni isitish (313 °C gacha qizdirish) ni asoslovchi texnik – iqtisodiy va issiqlik hisoblaridan kelib chiqib har bir qozon agregatiga ikkitadan rotorining diametri 14280 mm bo'lgan SX – 14,2 rusumdagi havo qizdirgichlarni o'rnatish ko'zda tutilgan.

5. Ta'minot qurilmalari. Texnologik normalash normalariga muvofiq blokda har birining maksimal sarfi 50 % ish unumdorligiga ega bo'lgan turbouzatmali ikkita ta'minot nasoslari ta'minot suvini qozonga haydab beradi.

Ta'minot qurilmasi tarkibiga quyidagilar kiradi:

A) ta'minot nasosi PN – 1500 – 350 rusumli.

B) OK – 18PU rusumli uzatma turbinasi.

V) PD – 1600 – 180 rusumli buster nasosi.

6. Deaeratsion qurilma. Issiqlik hisoblari va texnologik loyihalash normalariga muvofiq har bir blokda bitta deaerator o'rnatiladi. Bu deaerator ishlab chiqarish unumdorligini 2800 t/soat va bosimi 7,5 kgs/sm² bo'lgan DP-200 deaeratsion kolonkasi va sig'imi 18,5 m³ bo'lgan deaerator validan tarkib topgan.

Bakning sig'imi ta'minot suvini $185 \cdot 60 / 2650 \cdot 1,1 = 3,8$ minutlik zaxirasini ta'minlash imkoniyatiga ega.

7. Past bosimli qizdirgichlar (PBQ)

Issiqlik hisoblari va texnologik loyiha normalariga muvofiq

PNS – 2000 – 1 rusumli 1 – PBQ

PNSV – 2000 – 2 rusumli 2 – PBQ

PN – 1900 – 32 – 6 II rusumli 3 – PBQ

PN – 1900 – 32 – 6 I rusumli 4 – PBQ

larni jarayonda qo'llaniladi.

8. Yuqori bosimli qizdirgichlar (YUBQ)

Blokning yuqori bosimli qismi uchun bajarilgan issiqlik hisobi va texnologik loyihalash normalariga muvofiq

PV – 1800 – 37 – 20 – 1 rusumli A va B qismi uchun 6 – YUBQ

PV – 1800 – 37 – 4,5 – 1 rusumli A va B qismli 7 – YUBQ

PV – 1800 – 37 – 60,5 – 1 rusumli A va B qismli 8 – YUBQ

larni tanlab olamiz.

Yuqori bosimli qizdirgichlar ikki yo‘lli tarzda parallel ulanadi.

1.2. K – 800 – 240 – 5 BUG' TURBINALI QURILMASINING PRINSIPIAL ISSIQLIK SXEMASI

800 MVt quvvatli energetik blok Tagan – Rog qozonsozlik zavodida tayyorlangan. Bug' ishlab chiqarish unumdorligi $2650 \cdot 10^3$ kg/soat bo'lgan, Shurtan konidan olinayotgan tabiiy gazda ishlashga mo'ljallangan TGP – 805 s/z rusumli to'g'ri oqimli qozon agregati va o'ta kritik bug' parametrlariga ega, oraliq bug' qizdirgichli, bir valli K – 800 – 240 – 5 rusumli kondensatsion turbina qurilmasidan tarkib topgan.

Turbina beshta silindrga ega 23,5 MPa va 540 °S parametrli bug' saqlash va rostlash klapanlari guruhidan o'tib ikki korpusli yuqori bosimli silindr (pog'onalar soni 12 ta) ga kiradi va yuqori bosimli va yuqori bosimli silindrning oxirgi pog'onalaridan keyin $P_{o.k}^0 = 3,8$ MPa bosim hamda taxminan 290 °S harorat bilan oraliq qizdirish uchun qozonga yo'naltiriladi.

Oraliq qizdirgichda qizdirilgan bug' (3,34 MPa bosim va 540 °S haroratli) saqlanish va rostlanish klapanlari orqali ikki yo'lli o'rta bosimli silindr (pog'onalar soni 18 ta) ning markazidan kiritiladi. O'rtacha bosimli silindrdan uchta ikki yo'lli past bosimli silindr (pog'onalar soni har birida 10 ta) ga o'tkazib yuboriladi. Past bosimli silindrdan chiqqan bug' ikki seksiyali kondensatorda oxirgi bosim $p_{k,yp} = 3,6$ kPa ($p_{k1} = 3,2$ kPa, $p_{k2} = 4$ kPa) ni tashkil qiladi.

Energoblok turbogeneratorning nominal hisobiy elektr quvvati $800 \cdot 10^3$ kVt deb qabul qilingan.

Turbina sakkizta regenerativ bug' atboriga ega – yuqori silindrdan ikkita, to'rtta – o'rta bosimli silindrdan va ikkita past bosimli silindrdan olingan atborlar.

Turbina kondensati avval ketma – ket ZS_2 va ZS_1 zichlamalar sovutgichlarida, ikkita aralash turdagi Q8 va Q7 hamda ikkita yuzali turdagi Q6 va Q5 past bosimli qizdirgichlarida qizdiriladi.

Deaeratoridan keyin ta'minot suvi buster va ta'minot nasoslari yordamida uchta yuqori bosimli qizdirgich orqali uzatiladi. Yuqori bosimli qizdirgichning bug' sovitgichi Violen sxemasiga ko'ra ulangan. Barcha yuzali turdagi yuqori

bosimli qizdirgich va past bosimli qizdirgichlar tashqi yon bug‘ sovitgichi va qizdiruvchi bug‘ drenaji sovitgichiga ega.

Aralash turdagi past bosimli qizdirgichlarning vertikal konstruksiyasi bo‘lganligi uchun kondensat uchta pog‘onali qilib o‘rnatilgan.

Ta‘minot qurilmasi asosiy turbinaning uchinchi atboridan bug‘ olib ishlaydigan kondensatsion rusumli turbinali uzatmaga ega. Uzatma valining ikki tomoniga buster nasosi aylanishlar chastotasini pasaytirib beruvchi reduktor o‘rnatilgan. Turbinali uzatmaning kondensat nasosi bilan asosiy kondensatorga uzatiladi.

Yuqori bosimli qizdirgichlar drenaji kaskadli trazda deaeratorga quyiladi, PBQ – 5 va PBQ – 6 larning drenajlari esa PBQ – 7 dan keyin aralashtirgichga kiritiladi. ZS- 2 larning drenajlari asosiy kondensatorga yuboriladi.

Ikki pog‘onali tarmoq qurilmasi uchun qizdiruvchi turbinaning beshinchi va oltinchi otborlaridan olinadi. Bu bug‘larning kondensati kaskadli ko‘rinishida avval drenaj sovitgichida, keyin esa kondensatorga quyiladi. Qozon havosini dastlabki qizdirish qurilmalari purkovchi ventilyatordan keyin o‘rnatilgan energetik qizdirish kaloriferlaridan tarkib topgan. Ularning qizdiruvchi bug‘i beshinchi otbordan olinadi, uning kondensati esa maxsus drenaj – kengaytirgichiga yo‘naltiriladi.

Bug‘ otborlari oqimlariga nisbatan shartli olingan energoblokning bug‘ va suv isrofi $\alpha_{yr} = 0,015$ uning o‘rni 40 °C harorat bilan turbina asosiy kondensatorga uzatilayotgan kimyoviy tozalangan va tuzsizlantirilgan qo‘shimcha suv bilan to‘ldiriladi.

Energoblokning ta‘minot qurilmasida bosh turbinani yuqori bosimli silindri saqlash va rostlash klapanlari to‘kilmalaridan foydalanish ko‘zda tutilgan. To‘kilmalar qisman “qaynoq” liniyaga va oraliq qizdirgich quvurlariga, qisman deaeratorga yo‘naltiriladi. O‘rtacha bosimli silindr saqlash va rostlash klapanlaridan to‘kilmalar ham deaeratorga kelib kiradi. Ushbu klapanlar va yuqori bosimli silindrda hamda o‘rta bosimli silindrning so‘nggi zichlamalaridan chiquvchi to‘kilmalar esa 3S – 2 zichlama sovitgichiga yo‘llaniladi.


Yuqori bosimli silindrning bir zichlama kameralarining to'kilmalari (α_{y1} ; α_{y2}) deaeratorga kiradi. Ikkinchi zichlama kamerasining to'kilmalari esa zichlama sovitgichiga kiradi. Yuqori bosimli silindr, o'rta bosimli silindr va uchta past bosimli silindrning eng so'nggi zichlamalariga deaeratoridan bug' olib beriladi. U yerdagi bug' esa bug' ejektori bilan so'rib olinadi va 3S – 2 ga yo'naltiriladi.

Ta'minot nasosi uzatma turbinasining eng so'nggi zichlamalariga deaeratoridan olingan bug' beriladi. Bu zichlamalardan bug'ni so'rib olingandan keyin esa uzatma turbina zichlama sovitgichiga uzatiladi. Ta'minot nasosining birinchi kamerasidan suv to'kilmalari deaeratorga, keyingi kamerasidan to'kilganlari esa PBQ – 7 ga yo'naltiriladi. Turbinaning uchta past bosimli qizdirgichlarini ostki qismida bo'ylama, bug' bo'yicha chegaralangan qismli kondensatorga o'rnatiladi. Bu kondensator ikki pog'onali bug' kondensatsiyalashini amalga oshiradi, shuning uchun ham joyiga qarab bug'ning oxirgi bosimi turlicha bo'ladi.

$$P_{k1} < P_{k2}$$

Bug'ning pog'onali kondensatsiyalanishi sovituvchi suvning olingan haroratlarida juda chuqur vakuum holati hosil qiladi. Bug' kondensati kondensatorning birinchi seksiyasidan 2 – seksiyasiga quyiladi, keyin esa birinchi pog'ona kondensat nasosiga kiradi.

Bosh va uzatma turbinalarining kondensatoridagi havo suvli ejektor bilan so'rib olinadi. Talimarjon IES uchun to'rt yillik boshqaruv davri uchun aytish mumkinki, QMKdan hisobiy suv sarfiga kondensator vakuumi yaxshi ko'rsatkichga ega, texnik suv yetishmovchiligiga kuzatilmadi. Faqatgina QMK sathi kamayganda ushbu holat kuzatilishi mumkin.



1.1 – rasm. K-800-240-5 energoblok issiqlik sxemasi

Issiqlik sxemasi blokli prinsip asosida, asosiy bug‘ va suv oqimlariga ko‘ra bo‘ylama bog‘lanishlarsiz ishlab chiqilgan.

Umumstansion kommunikatsiyalar quyidagi asosiy oqimlarga ko‘ra bog‘langan.

1. 13 ta li bug‘ liniyasi – stansiya va blokning o‘z ehtiyojlari uchun;
2. Blok sikliga doimiy va avariya holatida qo‘shish uchun kondensat yoki distillyat;
3. Qozonlarni kislotali yuvish;
4. Tarmoq suvi;
5. Blok drenaj liniyalaridagi kondensati;
6. Sirkulyatsion tizim ejektorlari uchun texnik suv.

Aylanma tizimli texnik suv ta‘minoti tizimida blokka sovuq sarfi loyiha bo‘yicha $75\,000\text{ m}^3/\text{s}$ ni tashkil etadi.

To‘rtta SQNS nasoslarining haqiqiy suv sarfi $45000 \div 65000\text{ m}^3/\text{s}$ ni tashkil etdi. Bundan ko‘rinadiki bu holda blokka suv yetishmaydi. Buning oldini olish uchun avankameraga birdaniga yetishmaydigan suvni “Issiq aralash quyilishi”

yoʻli orqali tashlanadi. Buning natijasida suvni sachratish tizimining sovitish foydali ish koeffitsiyenti kamayadi va blokka yaxshi sovimagan suv haydaladi. Shunday holda zahira sovitish tizimi nasoslari yetishmovchiligini sezilib qoladi. Agarda birorta nasos ishdan chiqib qolsa bu hol yanada bilinib qoladi. (buning oqibatida blok quvvati bir necha 10 MVtga tushishi mumkin).

Blokni yaxshi, ishonchli boshqarish uchun, № 5 va 6 – nasos stansiyasini ham ishga qoʻshish lozim.

Barcha montaj qilingan nasoslar ichida № 1 nasosi oʻzining yaxshi vibrasion koʻrsatkichlari bilan ajralib turadi.

Boshqalaridan farqli ravishda SQNS № 1 nasosida quyidagi ishlar bajarilgan.

- nasos soʻrish qismida oqim yoʻnaltiruvchi uskuna,
- 28 ta soplo diametrini (jami soplolar sonining 20 % i) 75 mm gacha kattalashtiriladi.

Ushbu ishlarni boshqa nasoslar uchun ham bajarish zarur.

Texnik suv taʼminoti tizimi qisqacha xarakteristikasi

Texnik suv taʼminoti turbinadan ishlab chiqqan bugʻ haroratini kondensatordan olish, turbina podshiniklari haroratini olish, moy tizimini ejektorlarini suv bilan taʼminlashga moʻljallangan. Bosh korpus texnik suv taʼminoti tizimi bir qancha alohida sovitish konturlaridan iborat boʻlib, ularning har birida eltuvchi va chiquvchi suv quvurlari, nasos qurilmalari va sovuq suv isteʼmolchilari bor. Mashinalar zali texnik suv taʼminoti tizimi quyidagi qismlardan iborat:

- sirkulyatsion suv bosh konturi;
- ejektorlar ishchi suvi konturi;
- texnik sovitish suvi konturi;
- sovitish mashinalari sirkulyatsion suv quvurlari;
- yuqori bosimli va past bosimli texnik suv kollektori;
- mashinalar zali va pristansion qismdagi oqova suv quvurlari.

Sovituvchi suv mashinalar zaliga sirkulyatsion nasos va qirg'oq nasos stansiyasida joylashgan texnik suvlar qushuv nasosi (TSQN) orqali keladi.

Energoblokning prinsipial issiqlik sxemasida joylashgan qurilmalar, jumladan kondensator va deaerator qurilmalari asosiy ish jismi sanalgan suv va suv bug'ining yo'qolishiga sabab bo'ladi. Chunki kondensatorida uzluksiz siyraklashtirilgan bosimni tutib turilishida ejektor moslamalariga bug' oqimining so'rilib turishi va deaerator shtuserida deaeratsiyalanish jarayonida ajralgan bug'-havo aralashmasini tashqi muhitga chiqarib yuborilayotganligi ish jismining bug' ko'rinishida yo'qolishini vujudga keltiradi.

Bundan tashqari, nasoslardagi zichlikning buzilishi, turli umumstansion issiqlik almashinish moslamalarida germetiklikning buzilishi ish jismini suv ko'rinishida yo'qolishiga sabab bo'ladi.

2 – BOB. K-800-240-5 TURBINASI BOSIM POG‘ONASINI HISOBLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

2.1. BUG’ TURBINASINING POG‘ONALARINI HISOBLASH DASTURLARI TAHLILI

Microsoft Excel – universal jadval muharriri bo’lib, unda jadvallar kiritish, ular bilan ishlash uchun qulay imkoniyatlar yaratib berilgan. Bu jadval muharririda boshqa formatda yaratilgan fayllarni import qilish imkoni berilishi bilan bir qatorda o’zida yaratilgan jadvallarni Office ning boshqa muharrirlariga, Web sahifa ko’rinishida va boshqa ko’rinishlarga eksport qilish imkoni ham berilgan.


Jadvallar tayyorlashda qulayliklari juda katta bo’lgan zamonaviy dasturlardan biri Microsoft Excel da tayyorlanadigan jadvalda rasm, formula, grafiklar, ovoz yozilgan fayllar, video-kliplar va hokazolarni qo’yish imkonini berilishi bilan birga ko’pgina tayyor formulalar orqali kerakli hisob-kitoblarni amalga oshirish qulayliklari berilgan.

Microsoft Excel dasturini ishga tushirish.

Odatda Microsoft Excel dasturini ishga tushirish uchun Windowsning «Pusk» knopkasi bosiladi, menyuning «Programm» bandidan Microsoft Excel nomli qismi ishga tushiriladi.

Yuqorida ko’rsatilgan joyda Microsoft Excel qismi bo’lmasa, C:\Program Files\Microsoft Office\Office katalogiga kirib EXCEL.EXE ni ishga tushiriladi.

Microsoft Excel ishga tushganda quyidagi oynani ko’ramiz.



Shu oyna Microsoft Excel programmasi ko'rinishi, u ishga tushishi bilan yangi hujjat tayyorlab uni «Kniga1» deb nomlab, unda uchta «List1», «List2» va «List3» varaqlari hosil qilinib foydalanuvchi uchun havola etiladi. MS Excel bizga jadval ko'rinishidagi varaq berib uning satrlarini 1,2,3,... bilan qatorlarini esa A,B,C,D,... kabi nomerlab qo'yilgan. Shu katakchalarni to'ldirib jadvallar hosil qilishimiz mumkin.

Kiritilgan jadval ustida ishlash (uni kompyuter xotirasiga yozib qo'yish, kerak paytda chaqirib olish, printerdan chiqarish va hokazolar) uchun «Standartnaya» panelida



joylashgan quyidagi knopkalar orqali amalga oshiriladi:



Yangi fayl hosil qilish



Oldin xotirada saqlab qo'yilgan, faylni ochish



Hosil qilingan faylni yoki kiritilgan o'zgartirishlarni xotirada saqlash



Ko'rinib turgan faylni printerdan chiqarish




Ko'rinib turgan faylni varoqda qanday joylashishini chamalab ko'rish



Bajarilgan buyruqlarni oxirgisidan boshlab bekor qilish



Bekor qilingan buyruqlarni qayta tiklash



Ko'rinib turgan matnni foiz hisobida kattalashtirish yoki kichraytirish



Yordam

Yuqorida keltirilgan knopkalar MS Excel ning «Standartnaya» panelida joylashgan edi.

Qator yoki ustunlarning kengligini o'zgartirish

Excelda qatorlarni 1,2,3 lar bilan belgilab qatorlar sarlavhasi xosil qilingan. Shu qatorlar sarlavhasidan kerakli qator tagidagi chiziqqa sichqoncha keltiriladi, sichqoncha ko'rinishi o'lchov o'zgartirish holatiga kelganda uning chap


knopkasini bosib turib kerakli tomonga qarab to kerakli joygacha sudrab olib boriladi.

Ustunlarning kengligini o'zgartirish ham xuddi shu tartibda bo'lib, faqat ustunlar sarlavhasidan o'zgartiriladi.


Kataklarni belgilash.

Kataklarni belgilash uchun sichqonchani belgilash boshlanadigan joyga keltirib uning chap knopkasini bosib turib kerakli joygacha sudrab borishimiz kerak. Yoki kursorni belgilanish boshlanadigan joyga keltirib, <Shift> knopkasini bosib turib «strelka»li klavishlar orqali kerakli joygacha belgilanadi.

Masalan: V3 katagidan YE5 katagigacha belgilash kerak bo'lsa, kursorni V3 katagiga keltirib <Shift> knopkasini bosib turib, «strelka»li knopkalar orqali E5 katagiga boramiz va kerak bo'lgan belgilashni hosil qilamiz.




- ✓ Agar shu belgilashga G1 dan G3 gacha bo'lgan kataklarni ham qo'shish kerak bulsa Ctrl knopkasini bosib turib, sichqoncha orqali G1, G2, G3 kataklarni unga qo'shamiz va biz belgilagan kataklar V3(YE5, G1(G3 kataklar to'plamidan iborat bo'ladi.
- ✓ Agar B,C,D va G ustunlarni belgilamoqchi bo'lsak, u holda ustunlar sarlavhasidan B ustun ustiga borib sichqonchani chap knopkasini bosib turib D ustunigacha sudrab olib boramiz va Ctrl knopkasini bosib turib ustunlar sarlavhasidan G ustunini belgilaymiz va quyidagi ko'rinishni hosil qilamiz.



✓

✓

- ✓ Agar 2,3,4 va 6 qatorlarni belgilamoqchi bo'lsak, u holda qatorlar sarlavhasidan 2 qator ustiga borib sichqonchanning chap knopkasini bosib turib 4 qatorigacha olib boramiz va Ctrl knopkasini bosib turib qatorlar sarlavhasidan 6 qatorini belgilaymiz va quyidagi ko'rinishni hosil qilamiz.



✓

Joriy yoki belgilangan katakning formatini o'zgartirish

Excel da katta-kichik, semiz, kursiv, tagi chizilgan va hokazo formatlardagi matnni yozishimiz mumkin. Buning uchun yozadigan matnimiz yoki belgilangan matn uchun formatni «Formatirovaniye» panelidagi



knopkachalar orqali tanlashimiz kerak.

Knopkachaning ko'rinishi	Knopkachaning bajaradigan funksiyasi
	Belgilangan yoki kursor turgan katakda yozilgan matnning shriftini tanlash. Masalan: Times New Roman, Arial, Courier va hokazo (Windows da urnatilgan shriftlardan biri)

	Belgilangan yoki kursor turgan katakda yozilgan matn shriftining o'lchovi ko'rsatiladi. Masalan: 10,13.5,14,20,28
	Belgilangan yoki kursor turgan katakda yozilgan matnning semiz yoki oddiyligini belgilash
	Belgilangan yoki kursor turgan katakda yozilgan matnning kursiv yoki oddiyligini belgilash
	Belgilangan yoki kursor turgan katakda yozilgan matnning tagi chizilgan yoki oddiyligini belgilash
	Katakda yozilgan matnni chap tomondan joylashtirish
	Katakda yozilgan matnni o'rtadan joylashtirish
	Katakda yozilgan matnni o'ng tomondan joylashtirish
	Katakning qaysi tomonlarida chiziq borligini tanlash.
	Katakning fonini tanlash
	Katakda yozilgan matn rangini tanlash

MS Excel da formula yozish.


Excelda formula “=” belgisini yozish bilan boshlanadi.

Formula yozishga misollar:

- ✓ S7 katagi V1 katagida yozilgan qiymatga teng bo'lsa uni ikkinchi marta kiritib o'tirmasdan S7 katagiga kursorni o'rnatib “=V1” deb kiritsak, Excel S7 katagi V1 katagi qiymatiga tengligini tushunadi va V1 katagidagi yozuvni takrorlaydi.
- ✓ S10 katagida V10 katagining 25 foizini yozish kerak. S10 katagiga kursorni o'rnatib “=V10*25/100” ni kiritsak, u V10 ning 25 foizini S10 katagiga yozadi.

Keyinchalik V10 ning qiymatini o'zgartirganda, avtomatik S10 ning qiymati ham mos ravishda o'zgaradi. Shu tartibda ixtiyoriy matematik amallarni bajarish mumkin.



- ✓ Yuqoridagi misolda S10 katagida V10 katagining 25 foizini yozdik deylik. Endi, S11 ga V11 ning , S12 ga V12 ning to S20 ga V20 ning 25 foizini yozish kerak bo'lsa yuqorida bir marta birinchisi uchun “=V10*25/100” deb yozish yetarli. Keyingilarini shu tartibda davom ettirish uchun S10 katagining tagidagi + belgichasini sichqoncha orqali ushlab S20 gacha tortish yetarli. (Rasmga qarang)



Excel ning standart funksiyalarini ishlatish


Yexcel ning uzida standart matematik, moliyaviy, statistik va boshqa formulalar o'rnatib quyilgan. Ulardan foydalanish tartibi quyidagicha: «Standartnaya» panelidan  knopkasi bosiladi va quyidagi oyna hosil bo'ladi:

Bu oynaning «Kategoriya» bandidan kerakli mavzu tanlanadi, Funksiya bandidan esa kerakli funksiyani tanlab OK knopkasi bosiladi. Masalan «Kategoriya» bandidan «Matemachiteskiye» qismi tanlanib, «Funksiya» bandidan esa «COS» funsiyasi tanlanib Ok knopkasi bosilsa, quyidagi oyna hosil bo'ladi.



Bu oynaning «число» qismiga hoxlagan sonning kosinusini hisoblash kerakligini yozamiz yoki  knopkachani bosib qaysi katakda yozilgan son kosinusi hisoblanishi kerakligini ko'rsatamiz.


Joriy (kursor o'rnatilgan) katakda yuqoridagi funksiya javobi hisoblab yoziladi. Katakda funksiya javobi ko'rinadi.



Rasmda belgilash orqali ko'rsatilgan qatorda esa funktsiyaning formula shaklidagi ko'rinishi ko'rinadi. Funktsiya joylashgan katak masalan V2 bo'lsa, uni o'zgartirish uchun yuqoridagi qatordan V2 ni o'zgartirsak yetarli.

MS Excel rasm chizish.


Excel da rasm chizish «Risovaniye» panelidagi knopkalar orqali amalga oshiriladi:



Действия ▾	Belgilangan (aktiv) figurani o'zgartirish (harakatlantirish, boshqasiga almashtirish va hokazo)
	Oldin chizilgan figuralarni belgilash
	Belgilangan (aktiv) figurani aylantirish
Автофигуры ▾	Figura joylashtirish
	Chiziq yoki yo'nalitirlgan chiziq chizish
	To'rtburchak yoki aylana chizish
	Art obyektini qo'yish
	Qo'yilgan obyektlarni xususiyatlarini o'zgartirish:

	1. Bo'yash uchun rang tanlash 2. Atrofidagi chizigi uchun rang tanlash 3. Matni uchun rang tanlash 4. Atrofidagi chizig'ining qalinligini tanlash 5. Atrofidagi chizig'ining makomini tanlash 6. Atrofidagi chizig'ining nima bilan boshlanib tugashini tanlash 7. Obyektning soyasini belgilash 8. Obyektning hajmini belgilash
--	---


Bu panel orqali joylashtirilgan obyektlarning har birini xossalari mavjud bo'lib, ular shu obyekt ustiga sichqoncha ko'rsatgichini o'rnatib chap knopkasini bosganda hosil bo'lgan menyudan «Format avtofiguri» qismini tanlaganda chiqadi va u orqali biz shu avtofigura uchun hamma xossalarini o'zgartirish imkoniga ega bo'lamiz. Masalan:




Bu oynadan biz avtofiguraning o'lchamini, uning rangi va chiziqlarini (Sveta i linii), joylashuvini (Polojeniye) va hokazolarini belgilashimiz mumkin.

MS Exselda rasmni joylashtirish

1. Rasmlarni ikki xil usulda joylatirish mumkin:
2. «Kartinki» – Excel ning o'zida bo'lgan rasmchalar to'plamidan biror rasmni olib joylashtirish
3. «Iz fayla...» - Biror fayldan rasmni olib joylashtirish.




Birinchi band, ya'ni Excel ning o'zida bo'lgan rasmchalar to'plamidan biror rasmni qo'yish uchun menyuning rasmda ko'rsatilgan bandiga kirsak quyidagi oyna hosil bo'ladi.



Bu oynadan kerakli rasmni tanlab «Vstavit» knopkasi bosilsa, tanlangan rasm matnda joylashadi.


Ikkinchi band, ya'ni biror fayldan rasm qo'yish uchun 1 rasmdan «Iz fayla...» bandini tanlasak» quyidagi oyna hosil bo'ladi:




Bu yerdan kerakli faylni tanlab, «Dobavit» knopkasi bosilsa, tanlangan rasm matnda joylashadi.

MS Excel da obyektlarni joylashtirish.

Excel da Windows qo'llab quvvatlagan har qanday obyektни qo'yish mumkin. Buning uchun Excel menyusining «Vstavka» bandidan «Obyekt...» qismi quyidagicha tanlanadi:



Bizga quyidagi ko'rinishda oyna hosil bo'ladi:



Bu oynadan biz matnda joylanishi lozim bo'lgan obyekt tipini tanlaymiz va OK knopkasini bossak, kursor turgan joyda obyekt joylashadi va o'zgartirish uchun shu obyektning muharriri (redaktori) ochib beriladi.

Agar biz matnda oldindan tayyorlangan obyektни joylashtirmoqchi bo'lsak, shu oynadan «Sozdaniye iz fayla» bandiga kirib obyekt saqlangan faylni ko'rsatishimiz kerak va OK knopkasi orqali o'sha obyekt matnimizga qo'yiladi.

2.2. K-800-240-5 BUG' TURBINASINING BOSIM POG'ONASINI HISOBLASH ALGORITMI

Bug' turbinasining bosim pog'onasini hisoblash algoritmini tuzishdan oldin pog'onani hisoblash matematikasini o'rganish zarur. Bug' turbinasi pog'onasini hisoblash uslubiyoti oltita bosqichni o'z ichiga oladi. Bu bosqichlar quyidagilar sanaladi.

1. Turbinaga kirish joyida va chiqish quvuridagi bug' parametrlarini tanlash va asoslash.
2. Turbinani issiqlik hisobi uchun bug'ni kengayish jarayonining iS – diagrammasini dastlabki qurish.
3. Bug'ning hisobiy quvvati va sarfini aniqlash.
4. Rostlanuvchi pog'onani turini tanlash va asoslash.
5. Rostlanuvchi pog'onaning issiqlik hisobi.
6. Rostlanmaydigan pog'onaning issiqlik hisobi.

Hisoblash ishini boshlash uchun hisoblash jarayonida zarur bo'ladigan kattaliklarni tanlab olish zarur:

1. Hisoblash uchun berilgan kattaliklar

1. Nominal elektr quvvati N_e
2. Rostlanuvchi otbor parametrlari
 - a) sarf: $G_{otb} = 150 \div 210 \text{ kg/s}$ gacha qabul qilinadi.
 - b) bosim: $p_{otb} = 0,4 \div 5,7 \text{ MPa}$ gacha
 - c) harorat: $t_{otb} = 56,8 \div 272 \text{ }^{\circ}\text{C}$
3. Valning aylanishlar soni: $n = 3000 \text{ ayl/min.}$

2. Turbinani issiqlik hisobi uchun bug'ni kengayish jarayonining iS – diagrammasini dastlabki qurilishi

Turbinani issiqlik hisobi uchun dastlab bug'ni kengayish jarayonining iS – diagrammasini qurish zarur. Buning uchun bug'ning boshlangich va oxirgi

parametrlarni bilgan holda, rostlovchi klapaniga, chiqish quvuriga bug'ning uzatilishida sodir bo'ladigan bosim isroflarini va turbinaning ichki nisbiy foydali ish koeffitsiyentini (FIK) aniqlash talab etiladi.

Saqlash va rostlash klapanlaridagi bosim isrofi toza bug'ning absolyut bosimini $3 \div 5 \%$ ga teng deb qabul qilinadi.

Demak birinchi pog'ona soplosi oldidagi bug' bosimi quyidagicha topiladi:

$$p'_0 = (0,97 \div 0,95) p_0, \text{ bar}$$

Chiqish quvuridagi bosim isrofi:

$$\Delta p_k = p_2 - p_k = \lambda \left(-\frac{c_n}{100} \right)^2 \cdot p_k$$

c_n – chiqish quvuridagi bug'ning tezligi:


a) kondensatsion turbinalar uchun $c_n = 100 \div 120 \text{ m/c}$;

b) teplofikatsion (T va PT tipidagi) turbinalar uchun $c_n = 80 \div 100 \text{ m/c}$;

v) qarshi bosimli (R tipidagi) turbinalar uchun $c_n = 50 \div 80 \text{ m/c}$.

λ - tajriba koeffitsiyenti $\lambda = 0,05 \div 0,1$;

p_k – kondensatordagi bosim bo'lib, odatda $p_k \approx (2 \div 5) \% p_0$ ga teng bo'ladi.



iS – diagrammadagi boshlang'ich va oxirgi parametrlar natijasida

$$H_0 = (h_0 - h_{kt})$$

iS – diagramada jarayonni ko'rish va turbinadagi toza bug' sarfini aniqlash uchun turbinaning ichki nisbiy yoki nisbiy effektivlik foydali ish koeffitsiyentlarini tanlash zarur bo'ladi.

1 – rasmda nisbiy effektiv foydali ish koeffitsiyentining η_{oe} turbina quvvatiga bog'liqlik diagrammasi keltirilgan.

2 – rasmda turbinaning mexanik foydali ish koeffitsiyentini η_m turbina quvvatiga bog'liqlik diagrammasi keltirilgan.

Tanlangan η_{oe} va η_m FIK lari asosida turbinaning ichki nisbiy foydali ish koeffitsiyenti hisoblanadi.

$$\eta_{oi} = \frac{\eta_{oe}}{\eta_m}$$

Turbinadagi foydali issiqlik tushishi kattaligi:



$$H_f = H_0 \cdot \eta_{oi}$$

Kondensatsion turbina uchun diagrammada jarayonning dastlabki qurilishi quyidagicha amalga oshiriladi:


- bug'ning boshlang'ich parametri bo'yicha 1-nuqta o'rni topiladi va belgilanadi.
- boshqa isroflar kabi klapanlarda xam drossellanish sababli bosim isrofi yuz beradi, $h = const$ chizig'i asosida p'_0 va t'_0 parametrlardan 2 – nuqtani topiladi.
- 2 – nuqtadan p_k chizig'i bilan kesishguncha vertikal (izoentropiya) chizig'ini tushiriladi.
- p_k chizig'idan Δp_k kattaligida yuqoriga ko'tariladi va H_0 ko'rsatkichni xamda p_2 izobarani topiladi.
- H_0 chizig'ida 2 nuqtadan $H_f = H_0 \cdot \eta_{oi}$ ko'atkichni aniqlanadi va p_2 izobara chizig'igacha gorizontal chiziq ortib 4 – nuqtani topiladi, shu bilan jarayon oxiriga yetkaziladi.

- 2 – 4 nuqtalar orasini to'g'ri chiziq bilan birlashtirib markaziy nuqtasi belgilanadi va shu joydan taxminan 15 kJ/kg izobara chizig'i tushiriladi va shu nuqta 3 – raqam bilan belgilanadi. Bu jarayonning kengayish paytidagi bug'ning parametrini xarakterlaydi.


- 2, 3, 4 nuqtalar orqali turbinada bug'ning politropik kengayish jarayonini ifodalovchi egri chiziq tortiladi.




2.1 – rasm. Nisbiy samaradorlik foydali ish koeffitsiyentining turbinada quvvatiga bog'liqligi.




2.2 – rasm. Turbinani reduktoridagi va mexanik foydali ish koeffitsiyentining generator quvvatiga bog'liqligi.



2.3-rasm. Bug'ning kengayish jarayoni



2.4-rasm. Og'ish burchagiga ko'ra α tezlik koeffitsiyentini aniqlash grafigi.



2.5 – rasm. d, h, l kattaliklarni aniqlash diagrammasi.

3. Turbina orqali bug' sarfini aniqlash.

1. Regenerativ otborli kondensatsion turbinalar uchun bug' sarfi.

$$G_o = \frac{N_e}{(H_0 - \Delta H_o) \eta_{oi} \cdot \eta_m \cdot \eta_g}$$

2. Regenerativ otborsiz kondensatsion turbinalar uchun bug' sarfi.

$$G_o = \frac{N_e \cdot K}{H_0 \cdot \eta_{oi} \cdot \eta_m \cdot \eta_g}$$

3. Teplofikatsion turbinalar uchun:

$$G_0 = \left(\frac{N_e}{H_0 \cdot \eta_{oi} \cdot \eta_m \cdot \eta_g} + G_T \frac{H_0^{II} \cdot \eta_{oi}^{II}}{H_0 \cdot \eta_{oi}} \right) \cdot K$$

bu yerda – $K = 1,015 \div 1,02$ gacha belgilangan quvvatni kafolatlovchi zaxira koeffitsiyenti;

$\Delta H_0 = c \cdot \Delta T$ - regeneratsiya uchun bug' olinishi hisobiga yuzaga keladigan issiqlik tushishi;

ΔT – ta'minot suvini to'liq qizdirish;

c – issiqlik sig'imi;

G_T – isituvchi otborning hisobiy sarfi, kg/s;

H_{oi}^H - past bosimli qismda vujudga keladigan izoentropik issiqlik tushishi, kJ/kg;

η_{oi}^H - past bosimli qismda ichki nisbiy FIK i

Zamonaviy turbina qurilmalarida regeneratsiya uchun bug' sarfi turbinadagi toza bug' sarfining 20-30 % ni tashkil qiladi. Demak toza bug'ning umumiy sarfi.

$$G_o' = (1,2 \div 1,3) \cdot G_o$$

4. Rostlanuvchi pog'ona turini tanlash bo'yicha tavsiyanomalar

Rostlovchi pog'ona soplosi bug' taqsimotida ikki gardishli tezlik pog'onasi yoki bir gardishli bosim pog'onasi ko'rinishida bo'lishi mumkin. Droselli bug' taqsimotida esa rostlanuvchi pog'ona bo'lmaydi. Nazariy kursdan ma'lumki toza bug' droselli bug' taqsimotida bitta yoki bir nechta kanallardan turbinaga parallel ravishda uzatiladi. Ular birinchi pog'ona soplosiga turbinaning butun aylana uzunligi bo'ylab bir paytning o'zida kiritiladi (partsiallik darajasi $\varepsilon=1$).

Droselli bug' taqsimotili turbinalarni o'rta va quyi kanallarida soploli bug' taqsimoti bilan taqqoslashga ko'ra iqtisodiy jihatdan samarali emas. Ular nominal rejimda ishlagandagina o'zini oqlashi mumkin. Shuning uchun droselli bug' taqsimotili turbinalarni bazaviy yuklamaga ega katta quvvatli IESlarda o'rnatish maqsadga muvofiq.

Biroq, boshqa tomondan qaraganda zamonaviy energetikada va energiya iste'molining barcha notekisliklarida shu narsa talab qilinadiki, har qanday qudratli

turbina ham o'zgaruvchan grafik asosida ishlatilishi zarur. Shu kabi sabablardan kelib chiqib zamonaviy bug' turbinalarda birinchi pog'onasi rostlovchi sanaladigan soploli bug' taqsimoti qo'llaniladi. Zamonaviy turbinasozlikda bir yoki ikki gardishli rostlanish pog'onasining qo'llanishi iqtisodiy yoki konstruktiv xususiyatlarning o'zgarishi bilan asoslanadi. Bir xil diametrdagi rostlanuvchi pog'onadagi issiqlik tushishlari bir gardishli pog'onada ikki gardishli pog'onaga nisbatan kam bo'ladi. Bunday munosabatning ko'rsatkichlari kattaligini u/c_a optimal nisbatning turlanishi bilan tushuntiriladi. Rostlovchi pog'onalarning har bir turi o'zining afzallik va kamchiliklariga ega.

Bir gardishli pog'ona hisobiy rejimlarda ikki gardishliga nisbatan katta foydali ish koeffitsiyentiga ega bo'ladi. Biroq o'zgaruvchan yuklamalarda ularning **fiki** keskin kamayib ketadi. Agar e'tibor bilan qarasak bu holat rostlovchi pog'onaning doimiy ravishda o'zgaruvchan yuklamalar sharoitida ishlashligi jihatidan juda muhim sanaladi.

Ayniqsa, rostlanuvchi bug' otboriga ega teplofikatsion bug' turbinalar uchun bu jixat muximdir.

Ikki gardishli rostlovchi tezlik pog'onalari hisobiy rejimlarda kichik **fikiga** ega bo'lsa ham o'zgaruvchan rejimlarda ularning **fikiga** bir gardishlarga nisbatan barqaror bo'ladi. Ikki gardishli pog'ona bir gardishli pog'onaga nisbatan katta issiqlik tushishini amalga oshiriladi. Bu esa rostlanmaydigan pog'onalar sonini qisqarishiga turbina uzunligini kichrayishiga konstruksiyaning soddalashuviga olib keladi. Bir gardishliga nisbatan bir xil aylanma tezliklarda issiqlik tushishi ikki gardishli pog'onada 4 marta, uch gardishli pog'onada esa 9 martagacha katta bo'lishi mumkin.

Ikki gardishli rostlanuvchi pog'onalarda katta issiqlik tushish ko'rsatkichlari bosimini va haroratini rostlanuvchi pog'ona kamerasida keskin pasaytirish imkonini beradi va loyihalashni osonlashtiradi, hamda turbina silindri va rotori uchun arzon materialni qo'llash sharoitini yaratadi.

